



OILA INSTITUTINING JAMIYATDAGI O'RNI VA TA'SIRI

Xadyatillayeva Shaxnoza Abrorovna

O'zbekiston Xalqaro Islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti 3- kurs talabasi

ANNOTATSIYA. Mazkur ilmiy maqolada oila institutining jamiyat hayot tarzini shakllantirishdagi o'rni tarixiy va zamonaviy kesimda tahlil qilinadi. Tadqiqotda an'anaviy jamiyatda oilaning shaxs tarbiyasi, ijtimoiylashuv, ma'naviy qadriyatlar va kundalik turmushga ko'rsatgan ta'siri hamda zamonaviy jamiyatda ushbu institutning funksional o'zgarishlari qiyosiy jihatdan o'rganiladi. Globallashuv, urbanizatsiya va raqamli texnologiyalar rivoji sharoitida oilaning hayot tarzga ta'siri nisbatan o'zgarib borayotgani, biroq uning ijtimoiy ahamiyati saqlanib qolayotgani ilmiy dalillar asosida asoslab beriladi. Maqolada kecha va bugun oilaning hayot tarziga ta'siri mexanizmlari ochib berilib, an'anaviy va zamonaviy yondashuvlar o'rtasidagi uzviylik va tafovutlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda natijalari oila institutining jamiyat barqarorligi va ma'naviy taraqqiyotidagi muhim rolini yana bir bor tasdiqlaydi.

KALIT SO'ZLAR: Oila instituti, hayot tarzi, an'anaviy jamiyat, zamonaviy jamiyat, qadriyatlar, globallashuv, individualizm.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Oila instituti masalasi sotsiologiya, pedagogika, psixologiya va falsafa fanlarida keng o'rganilgan. Tadqiqotchilar oilaning jamiyatning eng muhim bo'g'ini sifatida baholab, uning hayot tarzini shakllantirishdagi ro'liga alohida e'tibor qaratganlar.

Klassik sotsiologik yondashuvlarda oila ijtimoiylashuvning birlamchi instituti sifatida talqin qilinadi. Ushbu qarashlarga ko'ra, shaxsning axloqiy fazilatlari, mehnatga munosabati va jamiyatdagi o'rni aynan oilaviy muhitda shakllanadi. An'anaviy jamiyatda oila nafaqat tarbiya, balki iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondiruvchi markaz vazifasini bajargan.



Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda esa oila institutining funksiyalari qisqarib borayotgani, hayot tarziga ta'siri nisbatan zaiflashayotgani ta'kidlanadi. Ayrim olimlar bu jarayonni individuallashuv, yadro oilalar ko'payishi va raqamli muhitning kuchayishi bilan izohlaydi. Shu bilan birga ko'plab tadqiqotlarda oilaning jamiyat barqarorligi va ma'naviy hayotdagi o'rni hanuz muhim ekanligi qayd etiladi.

Oila instituti - bu jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo'lib, shaxslar o'rtasidagi nikoh, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan, avlodni ko'paytirish, tarbiya va psixologik qo'llab-quvvatlash funksiyalarini bajaradigan ijtimoiy tizimdir.

Oila institutining funksiyalari

Oila jamiyatda bir nechta muhim vazifalarni bajaradi:

1) Biologik funksiyasi - avlod tug'ilishi va insonlarning ko'payishini ta'minlash.

So'nggi 10 yilda tug'ilishlar soni umumiy holda o'sish trendini ko'rsatib, 2019-2021 yillarda yiliga taxminan sakkiz yuz ming- to'qqiz yuz mingtagacha yetgan. 2024- yilda esa 926400 tug'ilish qayd etilgan.

2) Tarbiyaviy va psixologik funksiyasi- farzandlarni tarbiyalash, ularni jamiyatga moslashtirish, axloqiy qadriyatlarni singdirish.

Alisher Navoiy o'z asarlarida oilani jamiyatning eng muhim bo'g'ini sifatida talqin qiladi. Uning nazarida inson kamoloti, axloq va ma'naviyat oiladan boshlanadi. Agar oila sog'lom bo'lsa, jamiyat ham sog'lom bo'ladi. "Mahbub ul-qulub" asarida Navoiy ota-onaning mas'uliyati, farzand tarbiyasining ahamiyati haqida alohida to'xtaladi. "*Farzand-- ota-onaning dunyodagi eng katta omonatidir.*" Navoiy ayolni, ayniqsa onani tarbiyaning markazi sifatida ko'radi. Ona farzand qalbiga birinchi bo'lib mehr, imon va odob urug'ini qadovchi zotdir.

3) Ijtimoiy funksiyasi- shaxslarni jamiyatga tayyorlash, odat- an'analarni uzatish.

Oila institutini mustahkamlashda xotin-qizlar bilan ishlashning ham ahamiyati juda katta. Xotin-qizlar bilan ishlash natijasida ajrimlar kamayadi,



farzandlar tarbiyasi yaxshilanadi, oilaviy zo'zavonlik holatlari qisqaradi, jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhit shakllanadi.

4) Emotsional qo'llab- quvvatlash--mehr, muhabbat, ishonch va o'zaro hurmat muhitini yaratish.

Albatta bu oila a'zolarining bir-birlariga nisbatan tushunish, mehr, ishonch, hurmat, ruhiy tayanch ko'rsatishidir.

5) Iqtisodiy funksiyasi- oila a'zolarining moddiy ehtiyojlarini qondirish.

O'zbekiston hukumati yosh oilalar, xususan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolarni uy-joy bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlash maqsadida uy-joy subsidiyalarini joriy qilgan. Bu dastur: ipoteka kredit olishni yengillashtiradi, subsidiya olish tartibini soddalashtiradi, ariza berish tartibi avtomatlashtiriladi, deb belgilangan. Bu chora-tadbirlar yosh oilalarning iqtisodiy yukini kamaytiradi, ijtimoiy moslashuvni osonlashtiradi va oilaviy barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon oilalari oilani parokanda qilayotgan yoxud iztirobli muammolarga duch kelmoqda. Unga sabab quyidagi uch narsadan biri bo'lishi mumkin: mahalladagi yoki jamiyatdagi nosog'lom muhit, ayol yoki erkakning shakllanishidagi xususiy sabab, qavmu- qarindosh, qo'ni-qo'shni, oshna-og'aynilarning aralashuvi.

Statistikaga ko'ra 2025-yilning birinchi yarmida (yanvar-iyun) O'zbekiston bo'yicha jami 23,300 ta ajrim qayd etilgan, bu 2024 yilga nisbatan taxminan 800 taga ko'p.

Eng ko'p ajrimlar qayd etilgan hududlar:

1. Toshkent shahri-1,500 ta
2. Toshkent viloyati- 1,200 ta
3. Farg'ona viloyati - 1,200 ta

Eng kam ajrimlar:

1. Navoiy viloyati-310 ta.

Shaharlarda ajrimlar yuqori - bu iqtisodiy stress, yashash sharoitlari, uy-joy muammolari kabi omillar bilan bog'kanadi. Ajrimlarning katta qismi 30 yoshgacha



bo'lgan juftliklarga to'g'ri keladi- yosh er-xotinlar moliyaviy, hissiy va oilaviy majburiyatlarga yetarlicha tayyor bo'lmasligi mumkin.

Xususiy sabablar. Ularning kelib chiqishi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, ayolning johilligi yoki erning ba'zi bir ko'rgan va bilgan narsalariga aldanib qolishi yohud oilaning faqirlikka yuz tutishi. Shular natijasida ayol yo'lini yo'qotib qo'yishi mumkin. Shuningdek, yomon tabiat(xarakter)li erlar ham oilani ko'pincha qiyinchilik va mashaqqatga griftor qilishadi. Yuqorida keltirilgan va boshqa barcha sabablarning asosiy negizi bitta: er-xotindan biri yoxud ikkisi ham Islom odobi, me'yorlari, oilaga tegishli shar'iy huquq va majburiyatlarni bilmasligi.

Oilaning barqaror va o'zgaruvchan qonunlarga amal qilishiga kelsak, yosh oila Islomning asoslari va zaruriy ko'rsatmalarini ehtirom qilish bilan bir qatorda zamonning taraqqiyoti, Islom shariatiga zid bo'lmagan yangi qonunlar, kutilayotgan xatarlarning oldini olish haqida ham mulohaza qiladi. Masalan, nikoh shartnomasini davlat ro'yxatidan o'tkazadi. Nikoh marosimini ochiq rozilik bilan guvohlar huzurida amalga oshiradi. Moddiy masalalarda ortiqcha talab qo'ymaydi.

An'anaviy jamiyatda oila va hayot tarzi

An'anaviy jamiyatda oila hayot tarzini belgilovchi asosiy institut bo'lgan. Bir necha avlod vakillari bir xonadonda istiqomat qilgan. Bunday tuzilma hayot tarzida jamoaviylik, o'zaro ma'suliyat va ijtimoiy nazoratni kuchaytirgan.

Zamonaviy jamiyatda oila va hayot tarzi

Zamonaviy jamiyatda urbanizatsiya va texnologik taraqqiyot ta'sirida oila institutida tub o'zgarishlar yuz berdi. Mustaqil yashash va shaxsiy tanlov hayot tarzining muhim belgilariga aylandi.

Bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayonida maktab, internetning roli oshdi, oilaviy muloqot qisqardi, individualizm kuchaydi. Bu holat hayot tarzini tezkor, qulay bazan ma'naviy jihatdan zaif holga keltirmoqda. An'anaviy oilada hayot tarzi jamoaga moslashgan bo'lsa, zamonaviy oilada shaxsiy ehtiyojlar ustuvorlik kasb etmoqda. Avval oila shaxs hayotini to'liq belgilagan bo'lsa bugun u yo'naltiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu o'zgarishlar hayot



tarzining ijtimoiy barqarorlikdan - individual erkinlikka, sekinlikdan - tezkorlikka, an'anaviylikdan zamonaviylikka o'tganini ko'rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila instituti hayot tarzini shakllantirishda kecha ham bugun ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli zamonaviy hayot sharoitida :

an'anaviy oilaviy qadriyatlarni asrash

zamonaviy hayot talablari bilan uyg'unlashtirish

oilaning tarbiyaviy rolini kuchaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Albatta kelajak avlod tarbiyasini to'g'ri olib borishda oila asosiy vazifalardan birini bajaradi. Ota- ona birinchi navbatda farzandni tarbiyasi va hayoti uchun mas'ul shaxsdir. *“Qush uyasida ko'rganini qiladi”* xalq maqoli ham bejiz aytilmagan. Bola o'z xulqi, odobi va dunyoqarashini eng avvalo oilada, ota- onasidan o'rganadi. Qush qanday uchishni , oziq topishni uyasida o'rganadigan bo'lsa, inson ham hayotiy ko'nikmalarni o'z oilasidagi muhitdan oladi.

Yana bir hadisda Payg'ambarimiz s.a.v shunday marhamat qilganlar:

“Sizlarning eng yaxshilaringiz -- o'z oilasiga eng yaxshi bo'lganlaringizdir.” Bu hadis oiladagi muomala madaniyati, mehr- oqibat va mas'uliyat jamiyatda insonning haqiqiy kamolot mezoni ekanini anglatadi. Demak, jamiyatda yaxshi inson bo'lish oilada yaxshi turmush o'rnaklarini ko'rsatishdan boshlanadi.

Oila va hayot tarzi o'rtasidagi sog'lom muvozanat jamiyat barqarorligining muhim omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sotsiologiya asoslari. - Toshkent.
2. G'. B.Shoumarov. *Oila psixologiyasi*. -T.:Sharq,2018.
3. Oila sotsiologiyasi. - O'quv qo'llanma .
4. M.Bekmurodov.*Oila sotsiologiyasi*. -T.:Universitet,2017.
5. Zamonaviy jamiyat va hayot tarzi . 6. Ma'naviyat va oila qadriyatlari .